“Yangi O‘zbekiston” universiteti Ilmiy-texnik kengashi yig‘ilishining 6-sonli bayonidan
KO‘CHIRMA

2026-yil 12-may Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: **B. Axmedov** – o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, *Kengash raisi*

Ishtirok etganlar: **A. Maraximov** – xalqaro ishlar bo‘yicha prorektor, *Kengash rais o‘rinbosari*

A. Umarov – innovatsiya va tadqiqot ishlari bo‘yicha prorektor v.b., *a’zo*

B. Narzilloyev – Ilg‘or tadqiqotlar instituti direktori, *a’zo*

B. Axmedov – Nazariya fizika instituti direktori, akademik, *a’zo*

K. Gulamov – Fizika-texnika instituti bosh ilmiy xodimi, akademik, *a’zo*

O. Abdurazzakov – Boshqaruv maktabi dekani, *a’zo*

Sh. Mardonov – Ilmiy-tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i, *Kengash mas’ul kotibi*

F. Eshmatov – Gumanitar, tabiiy va ijtimoiy fanlar maktabi dekani o‘rinbosari, *a’zo*

KUN TARTIBI:

“Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar instituti huzurida biologiya, kimyo va texnika fanlari bo‘yicha fan doktori darajasini beruvchi ilmiy kengash tuzish.

(B. Axmedov, A. Maraximov, A. Umarov, B. Narzilloyev, B. Axmedov, K. Gulomov, O. Abdurazzakov, Sh. Mardonov, F. Eshmatov, B. Axmedov)

Yig‘ilish avvalida, o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, Ilmiy-texnik kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash) raisi B. Axmedov so‘zga chiqib, kun tartibidagi masalani e’lon qildi.

Kengashda “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar instituti huzurida biologiya, kimyo va texnika fanlari bo‘yicha fan doktori darajasini beruvchi ilmiy kengash tuzish bilan bog‘liq masala ko‘rib chiqildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Universitet ilmiy va innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida, **Kengash qaror qiladi:**

1. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan eshitilgan axborot ma’lumot uchun qabul qilinsin va bu boradagi takliflarga rozilik berilsin.

2. “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar instituti huzurida Biologiya, kimyo va texnika fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajalarini beruvchi DSc.03/12.05.2026.B/K/T.192.03 raqamli ilmiy kengash tashkil etilsin.

3. Ilg‘or tadqiqotlar instituti huzurida Biologiya, kimyo va texnika fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajalarini beruvchi DSc.03/12.05.2026.B/K/T.192.03 raqamli ilmiy kengash tarkibi **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Ilg‘or tadqiqotlar instituti huzurida Biologiya, kimyo va texnika fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajalarini beruvchi DSc.03/12.05.2026.B/K/T.192.03 raqamli ilmiy kengash qoshidagi 03.00.12 - “Biotexnologiya”, 03.00.04 - “Mikrobiologiya va virusologiya” va 02.00.10 - “Bioorganik kimyo” ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy seminarlar tarkibi **6-ilovaga**, malakaviy imtihon komissiyalarining tarkibi **7-ilovaga**, yetakchi tashkilotlarning ro‘yxati **8-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Kengash mas’ul kotibi Sh. Mardonov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI * O‘ZBEKISTON - YANGI O‘ZBEKISTON UNIVERSITETI
DEVONXONA